

O'zbekiston Respublikasi  
Sog'liqni saqlash vazirining  
2025 yil "23" iyundagi  
180-sonli buyrug'iga  
ilova

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH  
VAZIRLIGI  
TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI  
RESPUBLIKA IXTISOSLASHTIRILGAN TERAPIYA VA TIBBIY  
REABILITATSIYA ILMIY-AMALIY TIBBIYOT MARKAZI**

**“PSORIATIK ARTRIT” NOZOLOGIYASI BO‘YICHA  
MILLIY KLINIK PROTOKOLLARI**

**TOSHKENT – 2025**

«TASDIQLAYMAN»  
Toshkent tibbiyot akademiyasi  
rektori (f.d., professor  
Sh.A. Boymuradov



23 may 2025 yil

**«PSORIATIK ARTRIT» NOZOLOGIYASI  
BO‘YICHA MILLIY KLINIK PROTOKOLLARI**

TOSHKENT – 2025

## Mundarija

“PSORIATIK ARTRIT” NOZOLOGIYASINING TASHXISLASH VA DAVOLASH BO‘YICHA MILLIY KLINIK PROTOKOLLARI.....	5
“PSORIATIK ARTRIT” NOZOLOGIYASINING TIBBIY ARALASHUVLARI BO‘YICHA MILLIY KLINIK PROTOKOLLARI.....	42
“PSORIATIK ARTRIT” NOZOLOGIYASINING PROFILAKTIKA VA REABILITATSIYASI BO‘YICHA MILLIY KLINIK PROTOKOLLARI.....	46

**“PSORIATIK ARTRIT” NOZOLOGIYASINING  
TASHXISLASH VA DAVOLASH MILLIY KLINIK  
PROTOKOLI**

**TOSHKENT – 2025**

## 1. Kirish qismi.

Ushbu klinik protokol psoriatik artrit bilan og‘rigan bemorlarni tashxislash va davolash bo‘yicha tavsiyalarni, bazis va yallig‘lanishga qarshi dorilar bilan davolash uchun strategik tavsiyalarni o‘z ichiga oladi. Ushbu klinik protokolni ishlab chiqishda Rossiya revmatologlari Assotsiatsiyasining "Psoriatik artrit" klinik tavsiyalari, EULAR recommendations for the management of psoriatic arthritis with pharmacological therapies, Amerika revmatologlar kolledji / Psoriazning milliy fondi (ACR / NPF), GRAPPA (Group for Research and Assessment of Psoriasis and Psoriatic Arthritis) psoriaz va psoriatik artritni tadqiqot qilish va baholash guruhi klinik tavsiyalari asos qilib olindi.

### Xalqaro kasalliklar tasnifi – XKT-10/11 shifr(lar)i:

XKT-10/11	
Kod:	<b>Psoriatik va enteropatik artropatiyalar;</b>
M07*/FA21	
M07.0/FA21.Y	– Distal falangalararo artropatiya (L40.5+)
M07.1/FA21.Y	– Mutilirlovchi artrit
M07.2/FA21.0	– Psoriatik spondilit (L40.5+);
M07.3/FA21.Z	– Boshqa psoriatik artropatiyalar (L40.5+).
<b>Yuklab olish (HKK (MKB)dan havola)</b>	<a href="https://mkb-10.com/index.php?pid=12048">https://mkb-10.com/index.php?pid=12048</a>

**Bayonnomani ishlab chiqish va qayta ko‘rib chiqish sanasi:** Bayonnoma 2025 yil ishlab chiqilgan. Qayta ko‘rib chiqish sanasi 2028 yil;

**Milliy klinik bayonnoma ishlab chiqish uchun mas‘ul muassasa:** RITvaTRIATM, Toshkent tibbiyot akademiyasi.

### **Klinik protokol va standartlarni ishlab chiqishda hissa qo‘shganlar:**

Jarayonni tashkil etish bo‘yicha revmatologiya yo‘nalishi bo‘yicha ishchi guruh a‘zolari:

<b>Azizova F.L.</b>	<b>TTA ilmiy ishlar bo‘yicha prorektor t.f.d., professor</b>
<b>Alyavi B.A.</b>	RITvaTRIATM direktori, t.f.d., professor
<b>Miraxmedova X.T.</b>	SSV revmatologiya bo‘yicha bosh konsultant t.f.d., prof. TTA 1-son ichki kasalliklar propedevtikasi kafedrasini mudiri.
<b>Raximova D.A.</b>	RITvaTRIATM laboratoriya raxbari t.f.d., SSV terapiya xizmati bo‘yicha bosh mutaxassis
<b>Aliaxunova M.Yu.</b>	RITvaTRIATM revmatologiya bo‘limi mudiri t.f.d., professor
<b>Nabieva D.A.</b>	TTA 1-son fakultet va gospital terapiya kafedrasini mudiri, t.f.d., professor
<b>Dadabaeva N.A.</b>	TTA 1-son ichki kasalliklar propedevtikasi kafedrasini dotsenti, t.f.n.

### **Mualliflar ro‘yxati:**

<b>Miraxmedova X.T.</b>	<b>SSV revmatologiya bo‘yicha bosh konsultant t.f.d., prof. TTA 1-son ichki kasalliklar propedevtikasi kafedrasini mudiri.</b>
<b>Raximova D.A.</b>	RITvaTRIATM laboratoriya raxbari t.f.d., SSV terapiya xizmati

	bo'yicha bosh mutaxassis
<b>Aliaxunova M.Yu.</b>	RIT va TRIATM revmatologiya bo'limi mudiri t.f.d., professor
<b>Dadabaeva N.A.</b>	TTA 1-son ichki kasalliklar propedevtikasi kafedrası dotsenti, t.f.n.
<b>Nabieva D.A.</b>	TTA 1-son fakultet va gospital terapiya kafedrası mudiri, t.f.d., professor
<b>Shodikulova G.Z.</b>	SamDTU 1-son ichki kasalliklar kafedrası mudiri, t.f.d., Samarkand viloyati bosh revmatologi
<b>Djuraeva E.R.</b>	TTA 1-son fakultet va gospital terapiya kafedrası dotsenti, t.f.n.
<b>Xamraev X.X.</b>	SamDTU 1-son ichki kasalliklar kafedrası dotsenti, t.f.n.
<b>Abdullaev U.S.</b>	TTA 1-son ichki kasalliklar propedevtikasi kafedrası assistenti, t.f.n.
<b>Muxsimova N.R.</b>	TTA 1-son ichki kasalliklar propedevtikasi kafedrası assistenti, t.f.n.
<b>Saidrasulova G.B.</b>	TTA 1-son ichki kasalliklar propedevtikasi kafedrası assistenti, t.f.n.
<b>Berdieva D.U.</b>	TTA 1-son fakultet va gospital terapiya kafedrası assistenti, t.f.n.
<b>Najmiddinov G.R.</b>	Farg'ona viloyati bosh revmatologi
<b>Bomurodova D.B.</b>	Buxoro viloyati bosh revmatologi

#### **Taqrizchilar:**

<b>Axmedov X.S.</b>	- 2-son oilaviy tibbiyotda ichki kasalliklar kafedrası mudiri, t.f.d., professor.
<b>Shukurova Surayo Maqsudovna</b>	– Tojikiston Fanlar akademiyasi a'zosi, Malaka oshirish instituti terapiya va kardiorevmatologiya kafedrası mudiri t.f.d., professor.

Klinik bayonnoma TTA ilmiy kengashida ko'rib chiqildi va \_\_\_\_\_ №\_\_ sonli bayonnomasi bilan tasdiqlandi.

#### **Texnik ekspertiza va tahrirlash:**

1. TTA 1-son ichki kasalliklar propedevtikasi kafedrası assistenti N.Muxsimova;
2. TTA 1-son ichki kasalliklar propedevtikasi kafedrası assistenti G.Saidrasulova.

#### **O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Ekspertlar guruhi mutaxassislarning ekspert bahosi:**

1. Respublika ixtisoslashtirilgan pediatriya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi kardiorevmatologiya bo'limi mudiri, t.f.n., SSV bolalar revmatologi maslahatchisi Sabirova Feruza Badriddinovna.

Mazkur klinik protokol va standartlar O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazir o'rinbosari Basitxanova E.E, Tibbiy sug'urta boshqarmasi boshlig'i Sh. Almardanov, klinik protokollar va standartlarni ishlab chiqish va joriy etish bo'limi boshlig'i Sh.R. Nurimova boshchiligida, Klinik protokollar va standartlarni ishlab chiqish va joriy etish bo'limi bosh mutaxassisi G.Djumayeva, yetakchi mutaxassisi N.Raximova tomonidan tashkiliy va uslubiy ko'magi asosida ishlab chiqilgan.

Klinik protokollarning qabul qilinishi va amaliyotda qo'llanilishini baholash Toshkent shahri va Toshkent viloyati sog'liqni saqlashning amaliy bo'g'ini vakillari bilan birgalikda amalga oshirildi.

#### **Amaliyotchi shifokorlar:**

1. M.V.Mirxamidov – TTA ko'p tarmoqli klinikasi revmatologiya bo'limi mudiri.
2. 2. Sh.Sh. Shojalilov – TTA ko'p tarmoqli klinikasi SKAL revmatologiya bo'limi mudiri.
3. N.A.Abduvalieva – Toshkent viloyati Olmaliq shaxri KTMP revmatolog shifokori.

#### **Bayonnoma protokolda foydalanilgan qisqartmalar:**

<b>ADA</b>	<b>- adalimumab</b>
<b>AS</b>	– ankilozlovchi spondilit
<b>AST</b>	– aspartataminotransferaza
<b>ALT</b>	– alaninaminotransferaza
<b>ASAS</b>	-Assessment of pondyloArthritis International society-spondiloartritlarni o'rganuvchi xalqaro jamoa
<b>BYaQV</b>	– bazis yallig'lanishga qarshi vositalar
<b>BYaO</b>	– beldagi yallig'lanish og'rig'i
<b>BIGK</b>	– bo'g'im ichi glyukokortikoidlar
<b>BOB</b>	– bemorlarda og'riqni baxolash
<b>BKB</b>	– bemorlarda kasallikni baxolash
<b>VASh</b>	– vizual-analogli shkala
<b>BSA</b>	-psoriatik teri jaroxatlanish maydoni BSA (Body Surface Area, %)
<b>PASI</b>	–psoriazning tarqalganlik va og'irlik indeksi (Psoriasis Activity Score Index)
<b>GIBV</b>	– gen-injener biologik vositalar
<b>GK</b>	– glyukokortikoidlar
<b>DFAB</b>	– distal falangalararo bo'g'im
<b>IL</b>	– interleykin
<b>INF</b>	– infliksimab
<b>i-FNO-<math>\alpha</math></b>	– FNO-alfa ingibitorlari
<b>IL-17</b>	- interleykin 17 ingibitorlari
<b>KShB</b>	– kasallikni shifokor baxolashi
<b>LeF</b>	- leflunomid
<b>MRT</b>	– magnit-rezonans davolash
<b>MT</b>	- metotreksat
<b>NYaQV</b>	– nosteroid yallig'lanishga qarshi vositalar
<b>HLA-B27</b>	- odam leykotsitar B27 antigeni
<b>OBS</b>	– og'riqli bo'g'imlar soni
<b>PsA</b>	– psoriatik artrit
<b>Ps</b>	– psoriaz
<b>RF</b>	– revmatoid omil
<b>SEK</b>	- sekukinumab
<b>SRO</b>	– S-reaktiv oqsil
<b>SpA</b>	– spondiloartritlar

<b>SSZ</b>	- sulfasalazin
<b>tsBYaQV</b>	– target sintetik BYaQV
<b>UTT</b>	-ultratovush tekshiruvi
<b>FS</b>	– funksional sinf
<b>SsA</b>	-siklosporin
<b>SSPA</b>	- siklik sitrullin peptidga antitana
<b>ShBS</b>	– shishgan bo‘g‘imlar soni
<b>EChT</b>	– eritrotsitlar cho‘kish tezligi
<b>ETA</b>	– etanersept
<b>EKG</b>	-elektrokardiografiya
<b>ExoKG</b>	-exokardiografiya
<b>EGFDS</b>	-fibrogastroskopiya

### **Mazkur tashxis/nozologiya bo‘yicha protokolning foydalanuvchilari:**

- 1.Revmatologlar;
- 2.Terapevtlar;
- 3.Oilaviy shifokorlar;
- 4.Travmatologlar – ortopedlar;
5. Dermatovenerologlar;
6. JTSh shifokori, fizioterapevt;
- 7.Tibbiyot oliygozlari magistrleri, klinik ordinatorlari va katta kurs talabalari.

### **Bemorlar toifasi:**

Psoriatik artritli bemorlar

### **Diagnostika usullari (diagnostik aralashuvlar) uchun dalillar darajasini baholash shkalasi (DD)**

<b>DD</b>	<b>Dalillarning ishonchlik darajasi</b>
1	Referens usul yordamida nazorat ostida o‘tkazilgan tadqiqotlarning tizimli sharhlari yoki meta-tahlil yordamida randomizatsiyalangan klinik tadqiqotlarni tizimli sharhi
2	Referens usul nazorati bilan o‘tkazilgan ayrim tadqiqotlar yoki ayrim randomizatsiyalangan klinik tadqiqotlar va har qanday dizayndagi tadqiqotlarni tizimli ravishda ko‘rib chiqilishi, meta-tahlil yordamida randomizatsiyalangan klinik tadqiqotlarni tizimli ravishda ko‘rib chiqilishi bundan mustasno
3	Referens usul yordamida izchil nazoratsiz yoki o‘rganilayotgan usuldan mustaqil bo‘lmagan referens usulo yordamida o‘tkazilgan tadqiqotlar yoki randomizatsiyalanmagan qiyosiy tadqiqotlar, shu jumladan, kohort tadqiqotlari
4	Qiyoslanmagan tadqiqotlar, klinik holat tavsifi
5	Muolajaning ta’sir mexanizmi asoslari yoki ekspertlar xulosasi

### **Profilaktika, terapevtik va rehabilitatsiya tadbirlari uchun dalillar darajasini (DD) baholash uchun shkala**

DD	Dalillarning ishonchlilik darajasi
1	Meta-tahlil yordamida randomizatsiyalangan klinik tadqiqotlarni tizimli ravishda ko‘rib chiqilishi
2	Ayrim randomizatsiyalangan klinik tadqiqotlar va har qanday dizayndagi tadqiqotlarni tizimli ravishda ko‘rib chiqilishi, meta-tahlil yordamida randomizatsiyalangan klinik tadqiqotlarni tizimli ravishda ko‘rib chiqilishi bundan mustasno
3	Randomizatsiyalanmagan qiyosiy tadqiqotlar, shu jumladan kogortli tadqiqotlar
4	Qiyoslanmagan tadqiqotlar, klinik holat yoki holatlar seriyasi tavsifi, “holat-nazorat” tadqiqoti
5	Muolajaning ta’sir mexanizmi asoslari (klinika oldi tadqiqotlar) yoki ekspertlar xulosasi

**Profilaktika, diagnostika, terapevtik va rehabilitatsiya tadbirlari bo‘yicha tavsiyalar (RTT) ning ishonchlilik darajasini baholash shkalasi**

RTT	Tavsiyalarning ishonchlilik darajasi
A	Kuchli tavsiya (barcha ko‘rib chiqilgan samaradorlik mezonlari (natijalar) muhim o‘rinni egallaydi, barcha tadqiqotlarning metodologik sifati yuqori yoki qoniqarli va qiziqtirayotgan natijalar bo‘yicha xulosalari kelishilgan)
V	Shartli tavsiya (ayrim ko‘rib chiqilgan samaradorlik mezonlari (natijalar) muhim o‘rinni egallaydi, ayrim tadqiqotlarning metodologik sifati yuqori yoki qoniqarli va/yoki qiziqtirayotgan natijalar bo‘yicha xulosalari kelishilmagan)
S	Kuchsiz tavsiya (sifatli dalillar keltirilmagan (ko‘rib chiqilgan samaradorlik mezonlari (natijalar) muhim o‘rinni egallamaydi, barcha tadqiqotlarning metodologik sifati past va qiziqtirayotgan natijalar bo‘yicha xulosalari kelishilmagan)

**2. Asosiy qism.**

**Kirish:**

Psoriatik artrit surunkali progressiv kechishi, tayanch-harakat tizimining funksional qobiliyatining buzilishi va bemorning hayot sifatining yomonlashishi tufayli muhim tibbiy va ijtimoiy muammo hisoblanadi.

Psoriatik artrit - surunkali kasallik bo‘lib, psoriaz kasalligi va yallig‘lanishli artrit belgilarini birlashtiradi. Ushbu kasallik dolzarbdir, chunki u bemorlarning hayot sifatini sezilarli darajada pasaytirishi, og‘riq, shish va bo‘g‘imlar harakatining cheklanishini, shuningdek, psoriazning teri ko‘rinishini keltirib chiqarishi mumkin. Ushbu kasallikning ahamiyati mehnat qobiliyatining pasayishi va nogironlik kabi omillarga bog‘liq.

PsAning epidemiologiyasi kam o‘rganilgan. Ammo psoriaz yer yuzi axolining 2-7% jaroxatlagani ma’lum. Psoriazlar ichida artritning tarqalganligi turli ma’lumotlarga ko‘ra 7 dan 47% gachani tashkil qiladi. Umumiy populyatsiyada PsAning tarqalganligi 0,04-1,4%ni tashkil qiladi, ba’zi davlatlarda, masalan Italiyada bu kasallik revmatoid artritga nisbatan ko‘p uchraydi. Kasallik turli yoshda, ammo ko‘p uchrashi xayotning ikkinchi va uchinchi bosqichida, erkak va ayollarda bir xil kuzatiladi.

[[https://cr.minzdrav.gov.ru/schema/562\\_2](https://cr.minzdrav.gov.ru/schema/562_2) <https://rheumatology.org/psoriatic-arthritis-guideline>  
<https://www.eular.org/website/search?search=psoriatic+arthritis>]

### Umumiy ta’rifi:

Psoriatik artrit – odatda psoriaz bilan kasallangan bemorlarda kuzatiladigan bug‘imlar, umurtqa pogonasi va entezislarning shikastlanishiga olib keladigan immun yalliglanish kasalligidir. PsA dermatologiya va revmatologiya pillapoyasida turgan kasallikning klassik namunasidir.

PsA periferik spondiloartritlar kichik guruhiga tegishli, klinik kechishida periferik bo‘g‘imlarning yallig‘lanishi kuzatilib (artrit), entezis (entezit) qo‘l va oyoq barmoqlari paylari (tenosinovit, daktilit), ko‘pincha aksial suyaklar zararlanishi bilan birga (spondilit, sakroileit) kechadi.

PsA rivojlanishi sabablari noaniq qolmoqda. Uning shakllanish omillari orasida genetik, immunologik va ekologik omillar mavjud. PS va PsA rivojlanishiga irsiy moyillik mavjud: PsA kasalliklarining 40% dan ortiq bu kasalliklardan aziyat chekadiganlar birlamchi darajali irsiylikka ega. Tirnoqlarni zararlanishi, boshning sochli qismi psoriazi, insert psoriaz, shikastlanish va tamaki chekish xavf omili sifatida psoriaz bemorlarni PsA rivojlanish xavfini oshiradi. PsA bemorning tayanch-xarakat tizimida zo‘riqishni keltirib chiqaradigan va xayot sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan yurak-qon tomir, psixologik va metabolik yondosh kasalliklar bilan birga uchrashi mumkin.

[[https://cr.minzdrav.gov.ru/schema/562\\_2](https://cr.minzdrav.gov.ru/schema/562_2) <https://rheumatology.org/psoriatic-arthritis-guideline>  
<https://www.eular.org/website/search?search=psoriatic+arthritis>]

### Klinik tasnifi:

PsAning klinik variantlari	Ta’rifi
Qo‘l va oyoq kafti Distal falangalarining birlamchi zararlanishi (distal shakl)	qo‘l va / yoki oyoqlarning klassik izolyatsiyalangan DMFS zararlanishi PSA kasallarining 5% da kuzatiladi. DMFS ishtiroki boshqa bo‘g‘imlar bilan birga ko‘pincha PSA ning boshqa klinik variantlarida kuzatiladi
Assimetrik mono/oligoartrit	PSA bilan og‘rigan bemorlarning ko‘pchiligida (70% gacha) sodir bo‘ladi. Odatda, qo‘l va oyoqlarning tizza, bilak, bilak-tirsak va interfalangeal bo‘g‘imlari ishtirok etib, yallig‘langan bo‘g‘imlarning umumiy soni 4 tadan oshmaydi.
Simmetrik poliartrit (revmatoid shakli)	PSA bilan og‘rigan bemorlarning 15-20% da kuzatiladi. RA kabi bog‘langan juft bo‘g‘imlarning ishtiroki bilan xarakterlanadi. Besh va undan ortiq bo‘g‘imlarning assimetrik poliartriti tez-tez kuzatiladi
Psoriatik spondilit	periferik artrit bilan tez-tez (taxminan 50%) birgalikda, kamdan-kam hollarda (2-4%)- izolyatsiya qilingan spondilit kuzatiladi
Mutilirlangan artrit	5% bemorlarda kuzatilgan PSA ning noyob klinik shakli barmoqlar va/yoki oyoqlarning "teleskopik deformatsiya" shakllanishi, qisqarish, ko‘p tomonlama subluksatsiyalar bilan bo‘g‘im yuzalarining keng tarqalishi (osteoliz) bilan tavsiflanadi. Shu bilan birga bo‘g‘im yuzalarining mahalliy (chegaralangan) osteolizi barcha PsAning klinik variantlarida rivojlanishi

mumkin

[[https://cr.minzdrav.gov.ru/schema/562\\_2](https://cr.minzdrav.gov.ru/schema/562_2) <https://rheumatology.org/psoriatic-arthritis-guideline>  
<https://www.eular.org/website/search?search=psoriatic+arthritis>]

### 3. Usullar, yondashuvlar va tashxislash jarayonlari.

#### Tashxislash mezonlari:

##### PsA CASPAR Tashxislash mezonlari

(CIASsification criteria for Psoriatic ARthritis, 2006).

PSA diagnostikasi CASPAR tasnifi mezonlariga asoslanadi. CASPAR mezonlariga ko'ra, bemorlarda yallig'lanish kasalligi (artrit, spondilit yoki yenterit) va 3 yoki undan ortiq nuqta belgilari bo'lishi kerak:

1 Psoriaz: - psoriaz kurik vaktida - psoriaz anamnezda - psoriaz oila anemnezi	Ball 2 1 1
2. Psoriatik tirnoq distrofiyasi: Barmok nuktasi, onixolizis, giperkeratoz	1
3. Salbiy revmatoid omil (boshqa lateks sinov usuli)	1
4. Daktilit: - tekshirish vaqtida butun barmoqning shishishi - daktilit anamnezda	1 1
5. Qo'shimcha suyak radiologik belgilari marginal o'sish turlari bo'yicha proliferatsiya (tashqari osteofitlar) qo'l va oyoq rentgenograflarida	1

#### PsAda spondilit tashxisi

<b>PsAda spondilit tashxisi (sinonim: psoriatik spondilit)</b> quyidagi 4ta belgilardan 2tasi asosida qo'yiladi.	Belda yallig'lanish og'rig'i uchun (2009) ASAS me'zonlari.
1. ASAS (2009) me'zoniga asosan belda yallig'lanish og'rig'i, shuningdek dumbada g'ijimlovchi og'riq. 2. Umurtqa pog'onasining sagittal va frontal satxida bo'yin, ko'krak yoki bel qismida xarakat cheklanishi. 3. Bir tomonlama sakroileit II bosqich belgilari va ko'proq tos obzor rentgenogrammasida, umurtqa pog'onasida sindesmofitlar. 4. MRTda faol sakroileit aniqlanishi (osteit/ STIR- yoki T1 – rejimida ileosakral chigal soxasida suyak to'qimasi shishi)	Beldagi og'riq yallig'lanish yo'li xisoblanadi, agar bemorda og'riq surunkali bo'lsa, davomiyligi 3 oydan ko'p bo'lsa, quyidagi 5ta belgidan 4tasi bo'lsa: 1. Kasallik 40 yoshdan boshlansa 2. Sekin-astalik bilan boshlansa 3. Jismoniy mashqdan keyin yaxshilansa 4. Tinch xolatda yengillik bo'lmasa

[[https://cr.minzdrav.gov.ru/schema/562\\_2](https://cr.minzdrav.gov.ru/schema/562_2) <https://rheumatology.org/psoriatic-arthritis-guideline>  
<https://www.eular.org/website/search?search=psoriatic+arthritis>]

### Kasallik faollik darajalari

0 - remissiya (DAS <1,6, EChT va SRO –norma)

I - past (1,6 ≤ DAS <2,4, EChT va SRO gacha 20)

II - urta (2,4 ≤ DAS ≤ 3,7, EChT va SRO 20-40)

III - baland (DAS >3,7, EChT va SRO >40)

DAS indeksi periferik artrit faoliyatini baholash uchun asosiy usul sifatida tavsiya yetiladi.

DAS Hisoblash uchun formula:

$$DAS = 0,54 \sqrt{IR} + 0,065 ShUS + 0,330 \ln(EChT) + 0,072 BKF$$

Bu yerda, ShBS – quyidagi shishgan bo'g'imlarning soni 28: yelka, tirsak, bilak-kaft, kaft-falangalar, proksimal falangalararo, tizza.

IR-indeks Richi – xar bir bo'g'imning palpatsiyada og'riqning yaqqollik darajasi (tos-son bo'g'imida faqatgina passiv xarakterda og'riq bo'lishi)

EChT – Vestergren usulida eritrotsitlar cho'kish tezligi,

BKF – bemorning kasallik faoliyatini umumiy baxolash mmda 100 millimetrli vizual analogli shkalada

Faoliyatni hisoblashning boshqa usullaridan foydalangan ma'qul, buning uchun DAS bilan yaxshi taqqoslanuvchanlik isbotlangan

Spondilit faolligi Batskiy fallik indeksi BASDAI yordamida aniqlanadi (anketaning o'zi 6 ta savoldan iborat, ilovaga qarang)

BASDAI < 4 – funksiya buzilmagan, PsA faolligi past;

BASDAI > 4 – funksiya buzilmagan va BASDAI < 4 funksiya buzilishi bilan birga – o'rtacha faollikda;

BASDAI > 4 funksiya buzilishi bilan birga – yuqori faollik;

[[https://cr.minzdrav.gov.ru/schema/562\\_2](https://cr.minzdrav.gov.ru/schema/562_2) <https://rheumatology.org/psoriatic-arthritis-guideline>  
<https://www.eular.org/website/search?search=psoriatic+arthritis>]

### Psoriaz bilan og'riqan bemorlarda PSA rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar

Xavf omili	Ta'rifi
Tashqi	1. Travma 2. infeksiya 3. Psixoemotsional zo'riqishlar, stresslar
Ichki	1. PS va PSA rivojlanishiga genetik moyillik 2. Neyroendokrin va immun (sitokin, chemokine) tartibga soluvchi mexanizmlarning buzilishi. 3. Semirish 4. Chekish

Ayniqsa yoshlikda semizlik va tamaki chekish psoriaz bilan og'riqan bemorlarda PsA rivojlanish omillari hisoblanadi.

## Klinik diagnostika

### Shikoyatlar:

Qo'l va oyoq kafti, tizza, boldir-tovon, kamroq yelka, tirsak va chanoq-son bo'g'imlarida og'riq va shish, bunda istalgan bo'g'imlar zararlanishi mumkin.

zararlangan bo'g'imlardagi karaxtlik

qo'l yoki oyoq barmoqlaridan birining sosiskasimon shishi

yurganda to'piqlarda og'riq, Axillov payining birikkan joyida

dumba yoki belda yallig'lanish g'ijimlovchi og'riq

umurtqa pog'onasi har qanday qismida og'riq, asosan bo'yin yoki bel-dumg'aza soxalarida, tunda paydo bo'luvchi, jismoniy mashqlar yoki NYaQVdan keyin kamayadi.

### Anamnezi:

Anamnezida psoriaz, tekshiruv vaqtida yoki oilaviy anamnezida psoriaz bo'lsa.

70% bemorlarda psoriatik teri zararlanishi bo'g'imlar, umurtqa pog'onasi yoki entezislarlar shikastlanishidan avval paydo bo'ladi, 20% da ular bir vaqtda rivojlanadi, 15-20% da psoriazning birinchi klinik ko'rinishlaridan oldin PsA paydo bo'ladi. Ammo PS ning yo'qligi PsA tashxisini istisno qilmaydi.

### Fizikal tekshiruv ma'lumotlari

Klinik ko'rinishlari	
Teri psoriazi	yozuvchi yuzalar, bukuvchi soxalarda, qo'li kafti, oyoq kafti, boshning sochli qismida, dumba burmalarida qizil qipiqplanuvchi pilakcha. Psoriatik triada: stearin dog'; terminal qobiq; qon shudringi (Auspits fenomeni)
Tirnoq psoriazi	tirnoq jaroxatlanishi: onixodistrofiya, onixolizis, «uchqun» simptomi, ko'ndalang targ'illik.
Periferik artrit	klinik jixatdan bo'g'imlarda og'riq, shish va xarakat chegaralanishi bilan namoyon bo'ladi. Xarakterli belgilari: qo'l va oyoq kafti distal falangalararo bo'g'imlar artritva "rediskasimon" deformatsiya, aksial artrit (bir vaqtning o'zida bitta barmoqning 3ta bo'g'imi jaroxatlanishi), daktillit va qo'l-oyoq kafti "sosiskasimon" deformatsiyasi.
Daktilit - (barmoq yallig'lanishi)	bir vaqtning o'zida barmoqlar yig'uvchi va yoziluvchi paylar jaroxatlanishi va falangalararo bo'g'imlar arriti natijasida paydo bo'ladi. Klinik jixatdan og'riq, xamma barmoqlarning bir maromda shishi teri qoplaminig ko'kintir rangda bo'lishi, xarakatda og'riq, PsA ga xarakterli barmoqlarning "sosiskasimon" deformatsiyasi tarzida namoyon bo'ladi. Ko'p xolatlarda tenosinovit-qo'l va oyoq kafti bukiluvchi va yoziluvchi paylarida yallig'lanish kuzatiladi. Klinik jixatdan tog'ay yo'lida og'riq va shish kuzatiladi.
Entezit- PsAning erta paydo bo'lishi	klinik jixatdan og'riq, ba'zida entez nuqtasida shish paydo bo'ladi. Lokalizatsiyasi- tizza usti yuqori soxasi, yonbosh suyagi qirg'og'i (qanotlari), troxanterlar, axillov payi va tovon suyagi

	yonbosh aponevrozi birikish joyi, yelka suyagi lateral do‘mboqchasida. Tovon soxasi entezitlari ko‘pincha bemorlarning funksional qobiliyatini kamaytirish sababi xisoblanadi.
Spondilit, sakroileit	umurtqa pog‘onasi jaroxatlanishi (psoriatik spondilit), ko‘pincha periferik artrit bilan birga keladi. Yakkalangan spondilit kam uchraydi (4%). PsAning xoxlagan klinik shaklida umurtqa pog‘onasining to‘liq jaroxatlanishi va ASAS (2009) me‘zoniga asosan belda yallig‘lanish og‘rig‘i umurtqa pog‘onasining turli soxalarida, asosan bo‘yin va bel qismida, karaxtlik, asosan bir xil pozada va ertalabki vaqtda, umurtqa pog‘onasining xarakatchanligi chegaralanishi uch satxda (gorizontal, frontal, sagittal), ko‘krak qafasi ekskursiyasi susayishi, nafas olganda ko‘krak qafasida og‘riq, shuningdek umurtqa pog‘onasi o‘tkir o‘sig‘i palpatsiyasida og‘riq kuzatilishi bir tomonlama yoki assimetrik sakroileit xos.

[[https://cr.minzdrav.gov.ru/schema/562\\_2](https://cr.minzdrav.gov.ru/schema/562_2) <https://rheumatology.org/psoriatic-arthritis-guideline>  
<https://www.eular.org/website/search?search=psoriatic+arthritis>]

### Laboratoriya tekshiruvlari.

#### Asosiy laboratoriya tekshiruvlari:

Maxsus laborator testlar va biomarkerlar mavjud emas

Umumiy qon analizi, siydik

SRO, revmatoid omillar (IgM RF)

ASSP

QBT: AST va ALT, kreatinin, glyukoza

Siydik kislota

Gepatit V, S viruslari, OITS markyorlari

Xomiladorlik testi

Mantu tuberkulin sinamasi va /yoki Diaskin test

Qonda lipidlar

HLA-B27

#### Yallig‘lanish faolligi ko‘rsatkichlari

**EChT** – tizimli yallig‘lanishning yuqorisezuvchan, ammo nospesifik va nostabil markyori.

**SRO** - yallig‘lanish faolligini baxolash, bo‘g‘imlar destruksiyasini tezligini bashoratlash uchun qo‘llanadi.

<b>1 A</b>	Har bitta bemorda adekvat terapiya o‘tkazish maqsadida yallig‘lanish faolligi aniqlanishi zarur.
------------	--

[[https://cr.minzdrav.gov.ru/schema/562\\_2](https://cr.minzdrav.gov.ru/schema/562_2) <https://rheumatology.org/psoriatic-arthritis-guideline>  
<https://www.eular.org/website/search?search=psoriatic+arthritis>]

### Instrumental tekshiruvlar.

### Asosiy instrumental tekshiruvlari:

Kaft, tovon, tos suyaklari va umurtqa pog'onasi obzor rentgenografiyasi

Bo'g'imlar UTTsi

MRT

O'pka rentgenografiyasi

EKG

ExoKG

**Rentgenografiya** -qo'l va oyoq kafti, tos suyaklari va chanoq-son bo'g'imi to'g'ri proeksiyada va umurtqa pog'onasiga o'tish qismida (ko'krak pastki qismi bel qismi bilan birgalikda yon proeksiyada) birlamchi tekshiruv maqsadida va bir yilda bir marta o'tkaziladi.

kaft va tovon rentgenografiyasida– bo'g'im tirqishi torayishi, suyak remodulyatsiyasi, oxirgi falangalarning rezorbsiyasi, yirik eksentrik eroziyalar, osteolizi xos. «Stakan ichidagi qalam» tipidagi deformatsiya, proliferatsiya, periostitlar, suyak ankilozlari xos;

Tos va chanoq-son bo'g'imi rentgenografiyasida bir tomonlama yoki assimetrik ikki tomonlama sakroileit xos

Umurtqa pog'onasining o'tuvchi qismi rentgenografiyasida paravertebral ossifikatlar va qirg'oq sindesmofitlari xos

**UTT energetik dopler xaritalash usuli** bo'g'im yumshoq to'qima strukturalarining o'zgarishlarini aniqlashda, ayniqsa erta PsAni aniqlashda, BYaQV va GIBVlar davolash fonida remissiya saqlanishini bashoratlashda muxim afzalliklarga egadir.

UTT PsA bemorlarda sinovit (yallig'lanish) va entezit, tenosinovitni aniqlashda sezgir usul xisoblanadi.

Bo'g'imlar UTT sida quyidagi parametrlar baxolanadi: sinovial qobiqning qalinlashishi, bo'g'imda shish bo'lishi, bo'g'im yuzasining konturi buzilishi (eroziya), bo'g'im oldi to'qimalarining o'zgarishi (tenosinovit)

UTT energetik dopler xaritalash usulida yallig'lanish yaqqolligini ko'rsatuvchi signal lokalizatsiyasini, tarqalishini va intensivligi aniqlanadi.

**MRT**- standart ultratovushga qaraganda kengroq nuqtai nazar bilan suyak va tog'ayning yumshoq to'qimalarini aniq tasvirlashga imkon beradi. MRT umurtqa pog'onasining (spondilit) va ileosakral chigalda (sakroileit), pay-bog'lam apparatida (entezit, tendinit) va bo'g'imlarda (sinovit) yallig'lanish o'zgarishlarini erta aniqlashga mo'ljallangan.

Ko'krak qafasi a'zolari rentgenografiyasi bemorlarda o'pkaning yondosh jaroxatlanishini aniqlashda, birlamchi tekshiruvda, BYaQV va GIBV tavsiya qilishdan oldin so'ng xar yili o'tkaziladi. EKG kamida bir yilda bir marta yurak-qon tomir kasalliklarini aniqlash uchun.

**EKG** - yurak-qon tomir patologiyalarini aniqlashda yiliga 1 martadan kam bo'lmagan vaqtda amalga oshiriladi.

**ExoKG**- qon-tomir patologiyalariga shubxa bo'lganda

**Rentgenografiya:**

<b>1 A</b>	Psoriatik artrit tashxislash va bo'g'imlar zararlanish darajasini dinamikada tekshirish maqsadida barcha bemorlarda, yilida bir marta rentgenografik tekshiruvlar o'tkazish tavsiya etiladi.
------------	--


### **Mutaxassislarning konsultativ ko'ruvi uchun ko'rsatmalar:**

- Nevropatolog – umurtqalararo bo'g'imlar shikastlanganida;

- Onkolog–umurtqa pog‘onasi va chanoq suyaklarining onkologik kasalliklari va metastazlarini istisno qilish maqsadida;
- Osteoftiziater – suyak-bo‘g‘im tizimining sil genezli shikastlanishini istisno qilish maqsadida;
- Dermatovenerolog – psoriatik teri zararlanishini davolash maqsadida;
- Travmatolog – bo‘g‘imlarni jarroxlik davolash masalasini xal qilish maqsadida;
- Infeksionist– bo‘g‘imlarning infeksiyon etiologiyali shikastlanishini istisno qilish maqsadida.

[[https://cr.minzdrav.gov.ru/schema/562\\_2](https://cr.minzdrav.gov.ru/schema/562_2) <https://rheumatology.org/psoriatic-arthritis-guideline>  
<https://www.eular.org/website/search?search=psoriatic+arthritis>]

### Tashxislash algoritmi:



[[https://cr.minzdrav.gov.ru/schema/562\\_2](https://cr.minzdrav.gov.ru/schema/562_2) <https://rheumatology.org/psoriatic-arthritis-guideline>  
<https://www.eular.org/website/search?search=psoriatic+arthritis>]

### Qiyosiy tashxis va qo‘shimcha tekshiruvlarni asoslash:

Tashxis	Qiyosiy tashxis uchun asos	Tekshiruvlar	Tashxisni istisno qilish mezonlari
Reaktiv artrit	Oyoq bo‘g‘imlarining shikastlanishi,	Urogenital infeksiya uchun IFA, tos	Terida psoriatik pilakchalarning bo‘lmasligi,

	dumg‘aza yonbosh artikulyatsiyasining shikastlanishi	suyaklari ichak infeksiya rentgenografiya	siydikda jinsiy yoki ichak infeksiyasining musbat bo‘lishi
Revmatoid artrit	Mayda kaft bo‘g‘imlarining jaroxatlanishi	RF, ASSP qo‘l bo‘g‘imlarining rentgenografiyasi.	Qo‘l bo‘g‘imlarining simmetrik artriti, ertalabki karaxtlik. Qo‘l kafti rentgenogrammasida; Epifizar osteoporoz, bo‘g‘im tirqishining torayishi, xoshiyalar
Podagra	1-bosh falanga bo‘g‘imining jaroxatlanishi	Siydik kislotasi uchun qon testi	Asosan erkaklar, o‘tkir artrit mavjudligi anamnezida (ko‘pincha monoartrit oyoqning 1-bosh barmog‘i) giperurikemiya.
Ankilozlovchi spondilit	Periferik shaklida oyoq bo‘g‘imlarining shikastlanishi, dumg‘aza yonbosh chigalining shikastlanishi	HLA B27, tos suyaklari rentgenografiyasi	kasallikning asta-sekin boshlanishi, asosan yallig‘lanish belda og‘riq, ertalabki karaxtlik mavjudligi, 2 tomonlama sakroileit

### Kasallik belgilari asosida qiyosiy tashxis

Klinik ko‘rinishlari	Psoriatik artrit	Revmatoid artrit	Ankilozlovchi spondilit	Reaktiv artrit
Jinsi	Ikkala jinsdagi bemorlarda bir xil sonda	Ko‘pincha ayollarda	Kupincha erkaklarda	Kupincha erkaklarda
Distal falangalararo bo‘g‘im	Juda tez-tez	Kamdan kam	Kuzatilmaydi	Kuzatilmaydi
Daktilit	tez-tez	Kuzatilmaydi	Kamdan kam	Tez-tez
Entezit	O‘rtacha chastota	+	Tez-tez	o‘rtacha chastota
Spondilit	o‘rtacha chastota	-	Juda tez-tez	+
Sakroileit	asimmetrik	-	simmetrik	asimmetrik
Ko‘z, teri va urogenital hududning shikastlanishi	Kamdan-kam hollarda old uveit, psoriatik kafti	Kamdan kam	Ko‘pincha oldingi uveit, iridosiklit	Ko‘pincha o‘tkir kon’yunktivit. uretrit, servitsistit
Artrit tipi	Asimmetrik oligo-, poliartrit	Simmetrik poliartrit	Oyoq bo‘g‘imlari artriti, spondilit	Oyoq bo‘g‘imlari

				oligoartriti
RO	Yo‘q	Juda tez-tez	Kuzaltilmaydi	Kuzaltilmaydi

[[https://cr.minzdrav.gov.ru/schema/562\\_2](https://cr.minzdrav.gov.ru/schema/562_2) <https://rheumatology.org/psoriatic-arthritis-guideline>  
<https://www.eular.org/website/search?search=psoriatic+arthritis>]

#### 4. Ambulatoriya darajasida davolash taktikasi:

##### Nomedikamentoz (dori-vositalarisiz) davolash:

###### Umumiy tamoyillar.

PSA-ko‘p tarmoqli davolanishni talab qiladigan geterogen, potensial og‘ir kasallik shuning uchun, psoriatik artrit bilan og‘rigan bemorlarni davolash revmatolog va dermatologning birgalikdagi qaroriga asoslangan bo‘lishi kerak

Bemorlarni davolashda tizimli ko‘rinishlarni (teri, ko‘zlar va oshqozon-ichak trakti) va yondosh kasalliklar metabolik sindrom, yurak-qon tomir kasalligi va depressiya kabi kasalliklarni hisobga olishi kerak.

###### Nomedikamentoz davolash:

Dieta shirin, achchiq va yog‘li ovqatlarni chegaralash;

###### Ozish:

Ortiqcha vaznli yoki semizlik bilan og‘rigan, tizza va/yoki son-chanoq bo‘g‘imi OA bilan og‘rigan bemorlarga vaznni boshqarish tavsiya etiladi.

Ortiqcha vaznli bemorlarga (TVI 25 kg/m<sup>2</sup> dan ortiq) tana vaznini 6 oy ichida kamida 5% yoki yil davomida 10% ga kamaytirish tavsiya etiladi.

PsA bilan og‘rigan bemorlarga quyidagilar tavsiya etiladi: muntazam ravishda o‘z-o‘zini nazorat qilish, oylik vaznini qayd etish, yog va tuzni iste‘mol qilishni cheklash, kuniga kamida besh porsiya meva va sabzavotlarni iste‘mol qilish va kuniga kamida 30 daqiqa jismoniy faollik. Erishilgan ko‘rsatkichlar bemor bilan muhokama qilinadi.

Muntazam jismoniy faoliyat va mashqlar bilan shug‘ullanish funksional holatni yaxshilaydi va bemorlarning ishlash qobiliyatini saqlab qolishga yordam beradi;

Mashqlar individual bo‘lishi va har bir bemorning ehtiyojlariga moslashtirilishi kerak, shunda ular bemor hayot tarzining bir qismiga aylanadi.

<b>1A</b>	Yengil jismoniy tarbiya va mashqlar PsA li bemorlarga foydali hisoblanadi.
-----------	--

<b>1A</b>	PAlI bemorlarga xayot turmush tarzini keskin o‘zgartirish ayniqsa, chekishdan voz kechish va vaznni kamaytirish tavsiya etiladi.
-----------	--

Jismoniy terapiya mashqlari uchun qarshi ko‘rsatmalarni hisobga olish kerak.

##### Fizioterapevtik tavsiyalar :

-fizioterapiya (iliq yoki sovuq muolajalar, ultratovush, lazeroterapiya, krioterapiya, igloreleksoterapiya),

-sanatorno-kurort davolash, dori vositalari bilan fizioterapevtik muolajalar, sulfid va radon vannalari yordamida davolash.

[[https://cr.minzdrav.gov.ru/schema/562\\_2](https://cr.minzdrav.gov.ru/schema/562_2) <https://rheumatology.org/psoriatic-arthritis-guideline>  
<https://www.eular.org/website/search?search=psoriatic+arthritis>]

**Medikamentoz (dori-vositalari bilan) davolash:**

PsA ni davolashning hozirgi strategiyasi "maqsadga yerishgunga qadar davolash" ("Treat to target") tamoyiliga asoslanadi.

<b>1A</b>	Davolash maqsadi muntazam ravishda kasallik faolligini baholash va shunga ko'ra davolashni tashkillashtirish, kasallikning remissiya (yoki past faolikka) erishishdir.
-----------	--

Bazis yallig'lanishga qarshi dori vositalarni "imkoniyat oynasi" (window of opportunity) jadvali ichida – PsA birinchi belgilari rivojlantirish paytdan boshlab birinchi 3 oy ichida iloji boricha erta boshlash kerak .

PsAni davolashda asosiy dori vositalar:

**NYaQV**

**Glyukokortikoidlar (bo'g'im ichiga)**

**Bazis yallig'lanishga qarshi sintetik standart vositalar (BYaQSSP)**

**Bazis yallig'lanishga qarshi gen-injener biologik vositalar (BYaQGIBV)**

JAK ingibitorlari (apremilast va tofatsitinib), Target-sintetik dori vositalari\*

O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tmagan dori vositalarining klinik bayonnomaga kiritilishi bepul tibbiy yordamning kafolatlangan hajmi doirasida va majburiy ijtimoiy tibbiy sug'urta tizimida harajatlarni qoplash uchun asos bo'lmaydi.

<b>1A</b>	PsAni davolashda nosteroid yallig'lanishga qarshi vositalar, glyukokortikoidlar, bo'g'im ichi, bazis yallig'lanishga qarshi vositalar va gen-injener biologik vositalar qo'llaniladi.
-----------	---

Asosiy dori-vositalarning ro'yxati (100% foydalanish ehtimoli bilan):

**Yallig'lanishga qarshi nosteroid vositalar**

**1-jadval**

Farmakoterapevtik guruh	Dori-vositasining Halqaro patentlangan nomi	Qo'llash tartibi	Dalillar darajasi
<b>Noselektiv ingibitorlar sOG-1 va sOG-2</b>			

fenil-sirka unumlari	kislota	Diklofenak	25 mg, 50 mg tabletk- ichishga-kuniga 2-3 marta 100 mg tabletk, kapsula- ichishga-kuniga 1 marta 3ml 25 mg/ml ampula- m/o- kuniga 1-2 marta 1ml 75 mg/ml ampula- m/o- kuniga 1-2 marta	1 A-V
fenil-sirka unumlari	kislota	Aseklofenak	100 mg tabletk- ichishga- kuniga 2 marta	1 A-V
indol-sirka unumlari	kislota	Indometatsin	25 mg tabletk- ichishga kuniga 2-3 marta	1 A-V
aril-sirka unumlari	kislota	Ketorolak	10 mg tabletk- ichishga- kuniga 1-4 marta 30 mg/ml ampula- v/i, m/o- kuniga 1-3 marta	1 A-V
propion unumlari	kislota	Ibuprofen	200 mg tabletk- ichishga- kuniga 3-4 marta 400 mg tabletk- ichishga- kuniga 2-3 marta 800 mg tabletk- ichishga-kuniga 2 tab 1 marta	1 A-V
propion unumlari	kislota	Naproksen	250mg, 500mg tabletk- ichishga-kuniga 2 marta 275mg, 550mg tabletk- ichishga-kuniga 1-2 marta	1 A-V
propion unumlari	kislota	Ketoprofen	50 mg kapsula- ichishga- kuniga 3-4 marta 100 mg tabletk- ichishga- kuniga 1-2 marta 150 mg tabletk va kapsula- ichishga-kuniga 1 marta 2 ml 50mg/ml ampula- m/o, v/i- kuniga 1-2 marta	1 A-V
propion unumlari	kislota	Deksketoprofen	12,5 mg, 25mg tabletk 25 mg ichishga eritma tayyorlash uchun granulali paketcha-ichishga-kuniga 1-3 marta 2 ml 25mg/ml ampula-m/o yoki v/i- kuniga 1-2 marta	1 A-V
oksikam		Tenoksikam	20 mg tabletk-ichishga-kuniga 1 marta 20 mg liofillangan kukun va erituvchi flakon-m/o, v/i-kuniga 1 marta	1 A-V

oksikam	Lornoksikam	4 mg tabletka-ichishga-kuniga 2-3 8 mg tabletka-ichishga-kuniga 1-2 marta 8 mg flakon v/i va m/o kiritish uchun eritma tayyorlashga liofilizat- v/i, m/o-kuniga 1-2 marta	1 A-V
oksikamы	Piroksikam	10 mg, 20 mg kapsula, tabletka-ichishga- kuniga 1 marta 20 mg/ml ampula- kuniga 1 marta	1 A-V
sirka kislota unumlari va uning birikmalari	Amtolmetil guatsil	600 mg tabletka-ichishga- kuniga 1-2 marta	1 A-V
<b>Selektiv ingibitorlar sOG-2</b>			
oksikam	Meloksikam	7,5–15 mg tabletka- ichishga- kuniga 2 marta 15 mg/1,5 ml ampula- m/o- kuniga 1 marta	1 A-V
sulfonanilid unumlari	Nimesulid	100mg tabletka, 100 mg/2 g suspenziya tayyorlab ichish uchun granula- ichishga- kuniga 2 marta	1 A-V
indol-sirka kislota unumlari	Etodolak	400mg, 600 mg tabletka- ichishga- kuniga 2 marta	1 A-V
<b>Yuqori selektiv ingibitorlar sOG-2</b>			
yuqori selektiv NYaQV	Etorikoksib	60 mg, 90 mg, 120 mg tabletka-ichishga- kuniga 1 marta	1 A-V
yuqori selektiv NYaQV	Selekoksib	200 mg kapsula – ichishga – kuniga 2 marta	1 A-V
			<a href="https://rheumatology.org/psoriatic-arthritis-guideline">https://rheumatology.org/psoriatic-arthritis-guideline</a>

1 A	NYaQVlar suyak-mushak belgilari va simptomlarini yengillashtirish uchun qo‘llaniladi.
-----	---

NYaQVlar artrit, spondilit, daktilit, entezit simptomlarini kamaytirish uchun qo‘llaniladigan birinchi qator vositalaridir.

NYaQV teri psoriaziga qarshi yaqqol samara bermadi.

Spondilit yoki entezitda NYaQV bilan davolash turt xaftada yengillik bersa davomiyligi 12 xaftagacha uzaytirilishi mumkin.

NYaQVlar ayniqsa glyukokortikoidlarning mahalliy in’eksiyalari bilan birgalikda qo‘llanganda yengil sinovit yoki spondilit uchun samarali .

NYaQVlarni agar kerak bo‘lsa GK, BYaQV, GIBVlar bilan birgalikda buyuriladi.

Oshqozon-ichak trakti va yurak qon-tomir tizimidagi salbiy reaksiyalar xavfini ulardan foydalanish bo'yicha tavsiyalarga muvofiq hisobga olish kerak.

Asosiy dori-vositalarning ro'yxati (100% foydalanish ehtimoli bilan):

**Glyukokortikoidlar**  
**Glyukokortikoidlar (maxalliy va bo'g'im ichi)**

2-jadval

<b>Farmakoterapev tik guruh</b>	<b>Dori-vositasining Halqaro patentlangan nomi</b>	<b>Qo'llash tartibi</b>	<b>Dalillar darajasi</b>
glyukokortikoid	prednizolon	tabletka 5 mg, ichishga, 5mg, sxema bo'yicha	1 A-V
Glyukokortikoid	prednizolon	ampula, 1ml /30mg, v/i, tomchilab, 30mg-120mg, 1 maxal	1 A-V
Glyukokortikoid	metilprednizolon	tabletka 4 mg, 16mg, ichishga, 4mg, sxema bo'yicha	1 A-V
glyukokortikoid- depo shakli	Betametazon dipropionat/natriya fosfat	7mg/ml-1,0ml in'eksiya uchun suspenziya, bo'g'im ichiga, 1,0 ml gacha, sxema bo'yicha	1 A-V
glyukokortikoid -depo shakli	Triamsinolon asetonid	40 mg/ml-1,0ml in'eksiya uchun suspenziya, bo'g'im ichiga, 1,0 ml gacha, sxema bo'yicha	1 A-V
			<a href="https://rheumatology.org/p-soriatic-arthritis-guideline">https://rheumatology.org/p-soriatic-arthritis-guideline</a>

3 C	Bo'g'im ichiga GK larni yuborish PsA uchun qo'shimcha davolash yo'li xisoblanadi. Sistemali GKlar periferik artritda qisqa vaqt davomida, eng kam samarali dozada ehtiyotkorlik bilan foydalanish mumkin.
-----	---

3 C	Mono-oligoartrit, poliartrit, daktilit, tenosinovit, entezitning turli lokalizatsiyasida (tovon, tirsak soxasida) bo'g'imlarga, payning suyakka birikish joyiga, shuningdek pay yo'liga maxalliy GKlar yuboriladi.
-----	--

Ba'zan sistemali GKlarni to'xtatish PSni xurujiga olib kelishi mumkin. Psoriatik spondilitni davolash uchun sistemali GK ni buyurish tavsiya etilmaydi.

Asosiy dori-vositalarning ro'yxati (100% foydalanish ehtimoli bilan):

### Bazis yallig‘lanishga qarshi vositalar

Sintetik standart bazis yallig‘lanishga qarshi vositalar (metotreksat, leflunomid, sulfasalazin, siklosporin A):

3-jadval

Farmakoterapev tik guruh	Dori-vositasining Halqaro patentlangan nomi	Qo‘llash tartibi	Dalillar darajasi
